

**TALABALAR YOTOQXONALARINI INTEGRATSIYALASHNING  
ZAMONAVIY KONSEPTUAL YONDASHUVLARI****Qo‘chqorbekov Nusratbek***Toshkent arxitektura va qurulish universiteti, Arxitektura kafedrası magistranti***A.M. Umarov***MChJ “Aziz Projekt” loyiha bosh arxitektor*

**Annotatsiya.** *Maqolada zamonaviy arxitekturada funksional integratsiya jarayonlarining rivojlanishi hamda ushbu jarayonlarning talabalar yotoqxonalari loyihalarida namoyon bo‘lishi tahlil qilinadi. Yotoqxona binolarining yashash, ta‘lim, mehnat va ijtimoiy faoliyat makonlari bilan uyg‘unlashuvi zamonaviy talabalar ehtiyojlari nuqtai nazaridan yoritiladi.*

**Kalit so‘zlar:** *talabalar yotoqxonasi, integratsiya, co-working, arxitekturaviy konsepsiya, ko‘p funksiyali bino.*

**Аннотация.** *В статье анализируется развитие процессов функциональной интеграции в современной архитектуре и проявление этих процессов в проектах студенческих общежитий. Интеграция зданий общежитий с жилыми, учебными, рабочими и социальными пространствами рассматривается с точки зрения современных потребностей студентов.*

**Ключевые слова:** *студенческое общежитие, интеграция, коворкинг, архитектурная концепция, многофункциональное здание.*

**Abstract.** *The article analyzes the development of functional integration processes in modern architecture and the manifestation of these processes in student dormitory projects. The integration of dormitory buildings with living, educational, work and social spaces is highlighted from the perspective of modern student needs.*

**Keywords:** *student dormitory, integration, co-working, architectural concept, multifunctional building.*

**Kirish.** Hozirgi kunda arxitektura amaliyotida binolarning alohida funksiyalarga bo‘linishi tobora kamayib, aksincha, turli funksiyalarni o‘zida mujassamlashtirgan integratsiyalashgan inshootlar keng tarqalmoqda. Ushbu jarayon jamoat binolari, ofis markazlari, sport majmualari va madaniy muassasalarda yaqqol namoyon bo‘lmoqda. An’anaviy kino va konsert zallari, kutubxonalar hamda madaniyat uylari o‘zining dastlabki funksional ahamiyatini qisman yo‘qotib, boshqa bino tiplari bilan integratsiyalanmoqda. Natijada bir vaqtning o‘zida bir nechta vazifani bajara oladigan ko‘p funksiyali binolar

vujudga kelmoqda<sup>234</sup>. Mazkur jarayonlardan talabalar yotoqxonasi binolari ham mustasno emas.

**Zamonaviy integratsiyalashgan bino konsepsiyasi.** Bugungi kunda ofis binolari co-working markazlari bilan, sport saroylari esa konsert va tadbirlar zallari bilan integratsiyalangan holda loyihalanmoqda. Bunday yondashuvlar bino maydonlaridan samarali foydalanish, iqtisodiy foyda olish va foydalanuvchilar ehtiyojlarini to‘liq qondirish imkonini beradi. Shu bilan birga, integratsiyalashgan binolarga bo‘lgan talab ham yildan-yilga ortib bormoqda.

Jahon tajribasida talabalar yotoqxonalari ham zamonaviy ofis va co-working makonlari bilan integratsiyalanayotganini kuzatish mumkin<sup>235</sup>. Ayniqsa, talabalar orasida masofaviy ishlash (onlayn mehnat) va frilans faoliyatining keng tarqalishi yotoqxonalariga yangi funksional talablarni qo‘ymoqda.

**Talabalar yotoqxonasining yangi funksional talablari.** Zamonaviy talaba uchun yotoqxonalar faqat dam olish joyi emas, balki o‘qish, ishlash va ijtimoiy faoliyat olib borish makoni ham bo‘lishi lozim.<sup>236</sup> Shu sababli, talabalar yashash xonalarida quyidagi funksiyalarni ta’minlash zarurati yuzaga kelmoqda:

- dam olish uchun yotoq makoni;
- ovqatlanish uchun kichik oshxona yoki mini-kitchen;
- masofaviy ishlash va mijozlar bilan muloqot qilish uchun shaxsiy yoki umumiy ofis zonalari.

Bundan tashqari, talabalar yotoqxonasini kichik mehmonxona xonalari bilan integratsiyalash ham maqsadga muvofiq hisoblanadi. Ushbu xonalar professor-o‘qituvchilar, olimlar, shuningdek, qisqa muddatli akademik almashinuv dasturlari asosida tashrif buyurgan xorijiy mutaxassislar uchun mo‘ljallanishi mumkin.

**Integratsiyaning ijtimoiy va iqtisodiy ahamiyati.** Talabalar yotoqxonasining mehmonxona funksiyasi bilan integratsiyalanishi talaba va professorlar o‘rtasida bevosita muloqotni kuchaytiradi, bilim va tajriba almashinuvi jarayonini jadallashtiradi hamda talabalarning xorijiy tillarni o‘rganish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Shu bilan birga, zamonaviy integratsiyalashgan yotoqxonalar binosiga faqat ijtimoiy obyekt sifatida emas, balki iqtisodiy jihatdan samarali, daromad keltiruvchi kichik biznes modeli sifatida qarash zarurati paydo bo‘lmoqda<sup>237</sup>. Talabalar o‘z bilim va malakalaridan kelib chiqqan holda:

<sup>234</sup> Yunusov SH.X, “Bino va Inshootlar tipologiyasi”, Toshkent 2018,

<sup>235</sup> Sabri Ben Rommane, “Home, Quality student accommodation”, Guidelines for mobile students on housing, University of Oviedo in Europe, Brussels 2024.

<sup>236</sup> Board of Regents of the University of Georgia, “Baseline Design Standards for Student Housing”, The University System of Georgia Atlanta, Georgia, July 2014.

<sup>237</sup> Xolmatov N.B, Sodiqov Z.R “Iqtisodiyot nazariyasi”, Toshkent 2012.

- aholi uchun to‘g‘arak va o‘quv kurslari tashkil etishi;
- abituriyentlar uchun maslahatlar berishi;
- shaxsiy rivojlanish va kasbiy tayyorgarlik mashg‘ulotlarini olib borishi mumkin.

Bu esa talabalarni o‘zini o‘zi band qilishga, xavfsiz va qulay muhitda daromad topishga undaydi<sup>238</sup>. Olingan daromad yotoqxonaga ma‘muriyati va talabalar o‘rtasida kelishilgan tartibda taqsimlanishi mumkin.

Talabalar yotoqxonalari integratsiyalash – bu zamonaviy oliy ta‘lim tizimining ajralmas qismi hisoblanadi. Rivojlangan davlatlar tajribasi shuni ko‘rsatadiki, yashash va o‘qish muhitining uyg‘unligi talabalar salohiyatini to‘liq namoyon etishga xizmat qila di.

Kelajakda yotoqxonaga infratuzilmasini rivojlantirishda innovatsion texnologiyalar, barqaror arxitektura va inklyuziv dizayn asosiy ustuvor yo‘nalishlar bo‘lib qoladi. Shunday ekan, zamonaviy konseptual yondashuvlarni milliy ta‘lim tizimiga moslashtirish dolzarb vazifalardan biridir.

Integratsiyalashgan yotoqxonaga modeli quyidagi asosiy yo‘nalishlarni o‘z ichiga oladi:

- **Ta‘limiy integratsiya** – yashash joyini o‘quv muhiti bilan bog‘lash.
- **Ijtimoiy integratsiya** – turli hudud va madaniyat vakillarini birlashtirish.
- **Texnologik integratsiya** – “aqli” boshqaruv tizimlarini joriy etish.
- **Ekologik integratsiya** – energiya tejamkor va barqaror qurilish tamoyillari.

Masalan, Harvard University kampusidagi turar joylar akademik va ijtimoiy muhitni birlashtiruvchi “residential house system” asosida tashkil etilgan bo‘lib, talabalar hayotini kompleks rivojlantirishga xizmat qiladi.

Barqaror arxitektura bo‘yicha ilmiy manbalarda talabalar yotoqxonalari “yashil bino” standartlari asosida loyihalashtirilishi zarurligi ta‘kidlanadi. World Bank tomonidan moliyalashtirilgan infratuzilma loyihalarida energiya tejamkorlik va ekologik xavfsizlik asosiy mezonlardan biri sifatida ko‘rsatilgan.

Adabiyotlarda quyidagi jihatlar ustuvor deb baholanadi:

- energiya samarador qurilish materiallari;
- qayta tiklanuvchi energiya manbalari;
- suv resurslarini tejash texnologiyalari;
- yashil hududlarni kengaytirish.

Tadqiqotchilar ekologik yondashuv uzoq muddatda iqtisodiy samaradorlikni ham oshirishini ta‘kidlashadi.

Tahlil qilingan ilmiy manbalar shuni ko‘rsatadiki, talabalar yotoqxonalari integratsiyalash ko‘p qirrali va kompleks jarayon hisoblanadi. Xalqaro tajriba va nazariy

<sup>238</sup> Lars Henriksen, “NORTHWEST DORMITORY-Sustainable Student Housing”, Aalborg University in Europe, Denmark 2015.

konsepsiyalar integratsiyani pedagogik, ijtimoiy, texnologik va ekologik jihatlar uyg‘unligida amalga oshirish zarurligini asoslaydi.

Umuman olganda, zamonaviy adabiyotlarda yotoqxonaga oddiy turar joy emas, balki talabaning shaxsiy va kasbiy rivojlanishini qo‘llab-quvvatlovchi innovatsion makon sifatida talqin qilinadi.

**Tadqiqot muhokamasi.** Mazkur tadqiqot natijalari talabalar yotoqxonalarini integratsiyalash jarayoni ko‘p omilli va tizimli yondashuvni talab qilishini ko‘rsatdi. Olingan ma‘lumotlar shuni tasdiqlaydiki, yotoqxonaga infratuzilmasi nafaqat yashash joyi, balki ta‘limiy, ijtimoiy va innovatsion muhit sifatida ham faoliyat yuritadi.

Natijalar ilgari xalqaro tashkilotlar, jumladan UNESCO tomonidan ilgari surilgan “yaxlit ta‘lim muhiti” konsepsiyasi bilan mos keladi. Ya‘ni, samarali ta‘lim tizimi uchun yashash sharoitlari muhim determinant hisoblanadi.

Tadqiqot natijalari “Smart dormitory” modeli energiya samaradorligi va boshqaruv shaffofligini oshirishini ko‘rsatdi. Elektron kirish tizimlari, onlayn boshqaruv platformalari va energiya monitoringi orqali operatsion xarajatlar qisqarishi aniqlandi.

Bu holat Osiyo tajribasi, xususan National University of Singapore kampusidagi aqlli boshqaruv tizimlari natijalari bilan mos keladi. Raqamli integratsiya xavfsizlikni kuchaytirish bilan birga, talabalar ehtiyojlariga tezkor javob berish imkonini yaratadi. Muhokama jarayonida yotoqxonaga muhitning psixologik farovonlikka ta‘siri alohida e‘tiborga loyiq ekanligi aniqlandi. Integratsiyalashgan ijtimoiy makon talabalar o‘rtasida ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash tizimini shakllantiradi, bu esa moslashuv jarayonini tezlashtiradi.

1-Jadval. Talabalar yotoqxonalarini integratsiyalashning zamonaviy konseptual yondashuvlari bo‘yicha analitik jadvali.

Konseptual yondashuv nomi	Asosiy mazmuni	Integratsiya darajasi	Amaliy qo‘llanish misollari
Ijtimoiy integratsiya modeli	Talabalar o‘rtasida ijtimoiy muhitni shakllantirish, hamkorlik va madaniy almashinuvni rivojlantirish	Yuqori	Xalqaro talabalar uy-joy dasturlari, mentorlik tizimi
Raqamli (aqlli) yotoqxonaga modeli	Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari orqali boshqaruv va xavfsizlikni ta‘minlash	O‘rta–Yuqori	Smart-karta tizimi, mobil ilova orqali boshqaruv
Ekologik-barqaror model	Energiya samaradorligi va ekologik muvozanatni ta‘minlash	O‘rta	Quyosh panellari, chiqindilarni saralash

Konseptual yondashuv nomi	Asosiy mazmuni	Integratsiya darajasi	Amaliy qo‘llanish misollari
			tizimi
Akademik integratsiya modeli	Yotoqxona va ta’lim jarayonini o‘zaro bog‘lash (learning community)	Yuqori	O‘quv zonalari, coworking hududlari
Inklyuziv integratsiya modeli	Nogironligi bo‘lgan va turli ijtimoiy qatlam vakillari uchun teng sharoit yaratish	Yuqori	Panduslar, moslashtirilgan sanitariya xonalari
Davlat-xususiy sheriklik (DXSh) modeli	Yotoqxona qurish va boshqarishda davlat va xususiy sektor hamkorligi	O‘rta	Zamonaviy talabalar turar joy majmualari

Shuningdek, inklyuziv dizayn elementlari (panduslar, moslashtirilgan xonalar, umumiy muloqot zonalari) teng imkoniyatlar tamoyilini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu natijalar xalqaro moliyaviy institutlar, jumladan World Bank infratuzilma siyosatida ilgari surilgan barqarorlik tamoyillari bilan uyg‘unlashadi. Muhokama natijalari shuni ko‘rsatadiki, talabalar yotoqxonalari integratsiyalash zamonaviy oliy ta’lim tizimining strategik yo‘nalishidir. Akademik samaradorlik, ijtimoiy moslashuv, raqamli boshqaruv va ekologik barqarorlik o‘zaro uyg‘unlashgandagina yotoqxona haqiqiy innovatsion makonga aylanadi.

Shunday qilib, integratsiyalashgan yotoqxona modeli talabaning shaxsiy, kasbiy va ijtimoiy rivojlanishini qo‘llab-quvvatlovchi kompleks tizim sifatida namoyon bo‘ladi.

**Xulosa.** Xulosa qilib aytganda, zamonaviy talabalar yotoqxonalari an’anaviy turar joy funksiyasidan chiqib, ko‘p funksiyali integratsiyalashgan makon sifatida shakllanmoqda. Bunday yondashuv yotoqxona binolarini ofis xonalari, co-working zonalari, mehmonxona xonalari, qahvaxonalar, qo‘shimcha ta’lim makonlari va sport inshootlari bilan uyg‘unlashtirishni taqozo etadi. Ushbu integratsiyalashgan konsepsiya talabalar yashash muhitining sifatini oshirish, ijtimoiy faollikni kuchaytirish va iqtisodiy samaradorlikni ta’minlashga xizmat qiladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Yunusov SH.X, “Bino va Inshootlar tipologiyasi”, Toshkent 2018.
2. O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi. (2023). *Talabalar turar joylarini rivojlantirish konsepsiyasi*. Toshkent.

3. Sabri Ben Rommane, “*Home, Quality student accommodation*”, Guidelines for mobile students on housing, University of Oviedo in Europe, Brussels 2024.

4. Board of Regents of the University of Georgia, “Baseline Design Standards for Student Housing”, The University System of Georgia Atlanta, Georgia, July 2014.

5. Xolmatov N.B, Sodiqov Z.R, “Iqdisodiyot nazariyasi”, Toshkent 2012.

6. Lars Henriksen, “NORDWEST DORMITORY-Sustainable Student Housing”, Aalborg University in Europe, Denmark 2015.

7. Altbach, Philip G., & Salmi, Jamil. (2011). *The Road to Academic Excellence: The Making of World-Class Research Universities*. Washington, DC: World Bank.

8. International Energy Agency (IEA). (2019). *Energy Efficiency 2019*. Paris: IEA.